

# YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-sentyabrida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 19 120,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-sentyabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 10 034,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,7 % ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2018-yil yanvar-sentyabriga nisbatan, % da
	2018-yil yanvar-sentyabr	2019-yil yanvar-sentyabr	
<b>I. YaHM</b>	<b>15 068,4</b>	<b>19 120,3</b>	<b>104,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 087,2	17 509,4	104,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	981,2	1 610,9	108,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>14 087,2</b>	<b>17 509,4</b>	<b>104,1</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7 190,3	7 734,6	100,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 991,5	4 807,3	110,5
sanoat	1 795,8	3 322,5	105,9
qurilish	1 195,7	1 484,8	117,5
Xizmatlar	3 905,4	4 967,5	106,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 065,1	1 257,6	103,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	951,6	1 072,1	106,3
boshqa xizmat tarmoqlari	1 888,7	2 637,8	107,5

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i – 100,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 44,2 %), sanoat – 105,9 % (19,0 %), qurilish – 117,5 % (8,5 %) xizmatlar – 106,2 % – (28,3 %) ni tashkil etdi.

### **2019-yil yanvar - sentyabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**




### **Iqtisodiy faoliyat turlari**

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiylar YaHMning 91,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8,4 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 6,8 % punktga kamaydi va hisobot yilda 44,2 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 6,3 % punktga oshdi va 27,5 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 28,3 % ni tashkil etdi va 2018-yil mos davri (27,8 %) bilan taqqoslanganda 0,5 % punktga ko'paydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018-yil yanvar-sentyabr



2019-yil yanvar-sentyabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,2 % ni (2018-yil yanvar-sentyabr – 7,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,1 % ni (6,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 15,0 % ni (13,4 %) tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018-yil yanvar-sentyabr



2019-yil yanvar-sentyabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Buxoro viloyat statistika boshqarmasi  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: M.Hamroev  
(0371) 230-82-98